

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 129 (1190), 2024-yil 1-iyul, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Qadri o‘g‘il-qizlarim!

Siz, azizlarni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ ayyom — Yoshlar kuni bilan chin qalbidan samimiy muhabbat bilan kutib olamiz.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O‘zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz qatori sizdek azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog‘liq holda ko‘ramiz. Shu bois, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularni kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta‘kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi Prezident vakillari bo‘lgan yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni quyidagidek hal etish imkonini bermoqda.

Ayniqsa, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar balansi” platformasi asosida olib borayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz natijasini o‘g‘il-qizlarimiz o‘z hayotida aniq his etmoqda.

Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish bo‘yicha joriy etilgan yangi tizim tufayli bu yilning o‘zida “mahalla yettilligi” tavsiyasi bilan 156 ming yoshga 60 ming gektar yer maydoni 30 yil muddatga ijaraga berilgani ham shu yo‘ldagi muhim qadamdir.

Albatta, yoshlarning mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda muhim yutuqlarga erishayotgani barchamizni xursand qiladi. Birgina o‘tgan o‘quv yilida maktab o‘quvchilarimizdan 55 nafari matematika, kimyo, biologiya, fizika va informatika fanlari bo‘yicha nufuzli xalqaro olimpiadalarda 8 ta oltin, 15 ta kumush, 32 ta bronza medalini, madaniyat va san‘at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda esa yoshlarimizning 383 nafari bosh sovrinni, 1 ming 359 nafari 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Yaqinda Qatarda bo‘lib o‘tgan futbol bo‘yicha Osiyo kubogi o‘yinlarida O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi mamlakatimiz tarixida ilk bor Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritgani ham barchamizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. **Mana, bizning qanday iste‘dodli, bilimli va matonatli yoshlarimiz bor! “Yangi O‘zbekiston yoshlari” degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo‘lgan bunday yigit-qizlar bizning bebaho bo‘lganimiz, oltin fondimizdir.**

Qadri navqiron do‘stlarim! O‘zbekistonda yoshlar siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar dunyo miqyosida tan olimoqda. O‘tgan yili Yoshlar taraqqiyoti indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasida eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, deb e‘tirof etilgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, BMT tomonidan “Yoshlar strategiyasi — 2030” ni namunaviy tarzda amalga oshirish bo‘yicha tanlab olingan 10 ta mamlakatdan biri aynan O‘zbekistondir. 2022-yilda Buxoro shahri — Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, 2024-yilda esa azim Toshkentimiz — Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e‘lon qilindi.

Shu kunlarda mamlakatimizda ilk bor o‘tkazilayotgan Butunjahon yoshlar festivali ham O‘zbekistonga bo‘lgan yuksak e‘tibor namunasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu anjumanda 92 ta mamlakatdan 700 nafardan ziyod chet ellik yoshlar, 20 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning vazirlik va idoralardan rahbar va mas‘ul xodimlar ishtirok etmoqda. Eng muhimi, yurtimiz yoshlarining butun dunyoda do‘stlari, hamkorlari ko‘paymoqda, bilim va kasb o‘rganish, global muloqot va almashuvlarda ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Aziz o‘g‘il-qizlarim! Farzandlari bilimli, iste‘dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug‘ bo‘ladi. Biz O‘zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Hech qachon unutmang, sizlar yoshlikning har bir daqiqasini g‘animat bilib, doimo bunyodkorlik va ijodkorlik hissi bilan, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg‘usi bilan yashasangiz, albatta, kam bo‘lmaysiz.

Sizlarni bugungi bayram bilan yana bir bor tabriklab, o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadlarga erishishda barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, omad va zafarlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz o‘g‘il-qizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

BMT BOSH KOTIBI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 30-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent xalqaro aeroportida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishni O‘zbekiston Bosh vaziri va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Toshkent shahriga kelgach, O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi. BMT Bosh kotibi “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida BMT delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambli mazmuni va me‘moriy yechimlari haqida ma‘lumot berildi.

Bu majmua 2021-yilda istiqlolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan edi. Unda mamlakatimizning qadimgi tarixidan boshlab to bugungi kungacha bo‘lgan eng muhim voqealar, buyuk alloma va jahongir bobolarimizning siymolari aks ettirilgan. Monumentning eng yuqori qismida Humo qushi tasvirlangan.

Delegatsiya a‘zolari majmuda aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va

jahongirlar, jaded bobolarimizning siymolariga alohida e‘tibor qaratdi.

Shundan so‘ng BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish poytaxtimizdagi Hazrati Imom majmuasida bo‘ldi.

Oliy martabali mehmonga bu yerdagi masjid va maqbaralarning bunyod etilishi, majmuda saqlanayotgan Usmon Mus‘hafi, uning yurtimizga keltirilish tarixi haqida ma‘lumot berildi.

O‘zbekistonda diniy-ma‘rifiy sohada olib borilayotgan ishlar, e‘tiqod erkinligi, diniy amallarni ado etish uchun yaratilgan sharoitlar xususida so‘z bordi.

Mamlakatimizda ilm ahllarining boy merosini chuqur o‘rganish, tarixiy obidalarini asrab-avaylashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu hududda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil Islom sivilizatsiyasi markazi poydevoriga tamal toshi qo‘ygan edi. Ushbu mahobati va mohiyati jihatidan ulkan markazning qurilishi, pardozlash ishlarini izchil davom etmoqda. Mehmonlarga uch qavatli majmua qadimiy obidalarimiz shaklida barpo etilganligi haqida ma‘lumot berildi.

Bino markazida ulkan gumbaz, to‘rt tomonida simmetrik peshtoqlar qurilgani aytiladi.

Bu kabi ezgu tashabbuslar xalqimiz va xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgani qayd etildi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tarixiy obidalardan hayratga tushganini ta‘kidledi. Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotganini yuqori baholadi.

1-iyul kuni Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Kun tartibidan O‘zbekistonning BMT va uning institutlari bilan ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari, shuningdek, global siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb jihatlari o‘rin olgan. Mamlakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Z.JONIBEKOV,
L.AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

NAVQIRON AVLODNING BAXT INDEKSI



Toshkent shahridagi “Humo Arena” saroyida 30-iyun — Yoshlar kuni va Butunjahon yoshlar festivalining yopilishi munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Poytaxtning fayzli ko‘chasida odamlar oqimiga qo‘shilib ketib boryapmiz. To‘rt tomonimda ham yoshlar! Go‘yo jo‘shqin daryo o‘rtasiga tushib olib, oqim bo‘ylab ketayotgandekman. Ro‘parada tantanali tadbir ishtirokchilariga eshiklarini keng ochgan “Humo Arena”!



Unga yaqinlashganim sari yoshlar, navqironlik haqida o‘ylayman. Barcha zamonlarda katta avlod yoshlarni qabul qilishga qiyin. Hatto qadimgi toshdevoerga yoshlarning buzilib ketayotgani haqida yozilgan. Qizg‘i, o‘sha yigit-qizlar keksaygach, yangi avlodni xuddi shunday malomat qiladi. Chunki odam qalbi qaynoq, shijoatli vaqtida temir to‘siqlarni buzishga, shu orqali yangiliklar yaratishga o‘ch bo‘ladi. Aynan shu jihatni katta avlod qabul qilishga qiyin.

Yangi O‘zbekistonda esa yoshlarga bo‘lgan munosabat mutlaqo boshqacha. Ularga katta ishonch va umid bilan qaraladi. Ularning qoidalarini buza olish kuchidan ezgulik yo‘lidagi yangiliklarni yaratishda foydalaniladi. “Humo Arena”dagi bayram tadbiri ham aynan shunga munosib tarzda

boshlandi. Unda turli sohalarda yutuqlarga erishgan yoshlar, oliy ta‘lim dargohlarida tahsil olayotgan yigit-qizlar, umumta‘lim maktablarining bitiruvchilari qatnashdi.

Avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlariga yo‘llagan tabrigini Prezident Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov o‘qib eshittirdi.

Davlatimiz rahbarining yoshlarga “do‘stlarim”, deya qilgan murojaati barchaga ko‘tarinki ruh berdi. Navqiron avlod ushbu murojaatdan asiy “udum”larga zid holda yangi O‘zbekistonda ularni tushunish, qo‘llab-quvvatlash siyosati borayotganini yana bir bor yurakdan his etdi.

Ayniqsa, “Mana, bizning qanday iste‘dodli, bilimli va matonatli yoshlarimiz bor! “Yangi O‘zbekiston yoshlari” degan sharafli nomga har tomonlama munosib bo‘lgan bunday yigit-qizlar bizning bebaho bo‘lganimiz, oltin fondimizdir”, degan e‘tirof qizg‘in qarshi olindi. Tabrikda yangi O‘zbekiston kelajagi shijoatli farzandlar bilan bog‘liq holda ko‘rilishi ta‘kidlandi. Bundan keyin ham yoshlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularni kamol toptirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tibor markazida ekani aytiladi.

So‘ng Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa‘dulloyev so‘z oldi. Bugungi yoshlarning xohish-istaklari, yurtimizda ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikrlar ilgari surildi. Mazkur qulayliklardan to‘laligicha foydalanib, yoshlar bundan-da ilg‘or va tashabbuskor bo‘lishga chaqirildi.

Yuqorida yoshlarni tushunish siyosati olib borilayotganini aytgan edik. Bayram tadbirida ham bu yaqqol ko‘zga tashlandi. Yoshlarga xos sho‘x kuy va zamonaviy qiyofadagi raqsnii tomoshabinlar olqishlar bilan qarshi oldi.

Mazkur chiqish esa milliy kuy va raqsalarimizga bog‘landi. Shuning o‘ziyoq qadriyatlarimizga hurmatni unutmagan holda zamon bilan hamqadam ekanimizni ko‘rsatdi. Shu bois, yangi O‘zbekistonda tom ma‘noda yoshlar mamlakati, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun hatto yigit-qizlarning tashabbusi, bildirgan taklif va mulohazalari davlat siyosatidagi muhim vazifalar qatorida qaralmoqda.

Bunga shu yilning 28-iyun kuni Prezidentimiz raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yana bir bor amin bo‘ldik. Ochiq muloqot tarzida o‘tgan yig‘ilishda davlat rahbari bevosita yoshlarning takliflarini tingladi.

2024-yil 1-iyul, 129-son

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



NAVQIRON AVLODNING BAXT INDEKSI



Boshlanishi 1-betda

Masalan, yosh tadbirkor Xoliyov Abdurazzaqov uch oy ichida 500 nafar imkoniyati cheklangan yigit-qizni ish bilan ta'minlashi haqida aytdi. Faqat buning uchun ularni o'qitish, kasbga tayyorlashda davlat ko'magi kerak. Bu taklifni davlatimiz rahbari qo'llab-quvvatladi. Mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi. Xuddi shunga o'xshash o'nlab fikrlar, takliflar ilgari surildi. Bularning barchasini ro'yobga chiqarish bo'yicha kelishib olindi. Shuning o'ziyiq yoshlarni tushunish yo'lidan borib, xohish-istaklari ro'yobga chiqarilayotganidan dalolatdir. Ha, yangi O'zbekistonda yoshlarga havas bilan qaraladi. Ularga quloq tutiladi, so'ng asriy an'analar, ajdodlar ko'rsatgan yo'lga asoslab orzular amalga oshiriladi. Bu tom ma'noda yoshlarning baxt indeksidir.



Asadbek Urunov, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi:

"Humo Arena"dagi bayram tadbiridan avval ana shu qoni qaynoq avlod vakillarini zimdan kuzatamiz. Barcha bayramona kayfiyatda.

Bir-birlarini yutuqlar bilan chin dildan qutlaydi. O'zaro suhbatlarda ishlari, rejalari haqida fikr yuritadi. Beixtiyor bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonadigan yoshlari bor mamlakatning kelajagi yorug' bo'lishi haqida o'ylaysiz. Axir ular doimo oldinga intilib yashaydi. Shunga munosib imkoniyat berilgan

Inson uchun eng katta g'alaba ota-onasi, millati ishonchini oqlash, bir millat manfaatini ko'tarib turishdir. Ushbu mas'uliyatdan, shunday yurt farzandi ekanimdan faxrlanaman.

politehnika universitetining to'rtinchi kurs talabasiman. 10 dan ortiq innovatsion loyihalar muallifman. Shuningdek, xalqaro va milliy tanlovlarda qatnashib, munosib o'rinlarni egallaganman.

Ba'zan chet elga tanlovlarga chiqqanimda boshqa davlat yoshlari bilan suhbatlashaman. Ular yurtimizdagi bo'layotgan islohotlar, jahon minbarlarida o'z sohosi bo'yicha yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan tengdoshlarim haqida aytdi. O'sha vaqtda ich-ichimda bir shukuh kechadi. Shu vatan saodati yo'lida

xizmat qilayotganimdan faxr tuyaman. Mashhur yozuvchi Paulo Kaelyo shunday degan: "Agar sen nimanidir chin ko'ngildan xohlasang, butun koinot unga yetishishga yordam beradi". Bugun yurtimizda yoshlar xohish va istaklariga yetishishida barcha sharoitlar mavjud. Buning uchun faqat o'qish, mehnat qilish kerak.

Inson uchun eng katta g'alaba ota-onasi, millati ishonchini oqlash, bir millat manfaatini ko'tarib turishdir. Ushbu mas'uliyatdan, shunday yurt farzandi ekanimdan faxrlanaman.

jamiyatda yoshlar shu tarzda yetakchi kuchga aylanadi. Bu albatta, xalq va davlatning istiqbolini belgilab beradi. Shukrki, yurtimizda yoshlar shu kabi ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalanmoqda. Mazkur jihatlar davlatimiz rahbarining tabrigida ham ta'kidlandi. Qolaversa, bundan buyon bor kuch va imkoniyatlar shu ezgu yo'lga safarbar etilishi aytiladi.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ular esa bundan to'g'ri va to'liq foydalana olsa, bas. Axir yoshlikning har bir daqiqasi g'animat. Inson, avvalo, bunyodkorlik, ijodkorlik hissi bilan yashasa,

tinimsiz mehnat qilishga ko'niksa, kelgusi hayoti shunga xos tarzda o'tadi. Aynan shu fazilatlar vatanparvarlik belgisi hisoblanadi.

Yoshlar kuni bayram sifatida nishonlanayotganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lmadi. Shu qisqa muddatda u xalqimiz, ayniqsa, yoshlar intiqib kutadigan bayramga aylanib ulgurdi. Negaki bu nafaqat yoshlarning bayrami, balki kelajak rejalarimizni yana bir marta muhokama qilib, yuksak marralar belgilab olinadigan shukuhli kundir. Joriy yilda ham Yoshlar kuni ana shunday muhim yangiliklar bilan tarix zarvarqlariga yozildi.

Bayram tadbiri kuy-qo'shiq, harbiylar, san'at va sport vakillarining chiqishlari bilan ko'tarinki ruhda o'tkazildi.



Sardor Eshpo'latov, sportchi, yoshlar murabbiysi:

O'ylaymanki, hech bir mamlakatda sportchilarga bizdagi kabi yuksak e'tibor berilmaydi. Davlatimiz g'amxo'rligi, xalqimizning xayrixohligi bugun sportchilikni faxrli kasblar sirasiga kiritdi, desam adashmayman. Bugun sportchi bo'lish istagidagi yoshlarning ko'pligi, ulardagi motivatsiyaning yuqorligini ko'rib, ertamiz

bugunimizdan-da buyukroq bo'lishiga ishonchim ortadi.

Albatta, bularning ortida davlatimiz rahbarining yoshlarga e'tibori, ularning kelajagiga qayg'urishi turibdi. Mamlakatimizning bir yosh o'g'li sifatida Prezidentimizning yoshlar borasida ilgari surgan har bir tashabbusini xursandchilik hamda hayajon bilan qabul qilaman.

Davlatimiz rahbari raisligida 28-iyun kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar sarhisobi, yangi vazifa va takliflar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishini kuzatar ekanman, boshdan-oxir hayajon tark etmadi. Ayniqsa, Prezidentimizning "Yoshlarimiz hayotda munosib o'mini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarini to'liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz" degan gaplari minglab tengdoshlarim qatorida menga ham vatanparvarlik tuyg'usini baxsh etdi, mas'uliyat hissini yukladi.

Umid qilamizki, yoshlarimiz, jumladan, sportchilarimiz ham bunday imkoniyatlarga munosiblik tuyg'usini yanada oshirib, yangi O'zbekistonda buniyod etishda bor salohiyatini ishga soladi.

Boboravshan G'oziddinov, Sardor TOLLIBOYEV, Jonibek ALIJONOV tayyorladi.

O'zbekiston — BMT: DAVLATLAR VA XALQLAR MANFAATI YO'LIDA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIKKA SODIQLIK



Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 30-iyun – 1-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Bu uning BMT rahbari sifatida mamlakatimizga ikkinchi tashrifidir.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan o'tkazgan uchrashuvda BMT va uning barcha institutlari "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amaliy ro'yobga chiqarishda ko'maklashishga tayyor ekanini ma'lum qilgan edi. Ushbu bayonot davlatimizni modernizatsiya va demokratlashtirish yo'lidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotgani va qo'llab-quvvatlanayotgani, shuningdek, mazkur jabhada olib borilayotgan yangilashlar samarasidan dalolatdir.

Ta'kidlash kerakki, keyingi paytlarda O'zbekiston BMT faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Xususan, joriy yilning o'zida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo uchun birinchi marta mamlakatimiz vakili BMTning muhim va nufuzli organi — Inson huquqlari qo'mitasiga 2025-2028-yillar uchun saylandi. Shuningdek, O'zbekiston 2025-2027-yillarga mo'ljallangan BMT Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi (ECOSOS) va Xalqaro mehnat tashkiloti Ma'muriy kengashi a'zosi bo'ldi.

Ushbu muhim voqealar O'zbekiston erishayotgan yutuqlarning yorqin dalili, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishga erishish yo'lidagi izchil sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki mamlakatning inson huquqlarini kengaytirish borasidagi prinsipial pozitsiyasi dunyoda keng e'tirof etilganini isbotlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi umumiy muhokamalaridagi ishtiroki mamlakatimiz bilan BMT o'rtasidagi samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston rahbari BMT minbaridan deyarli har yili global va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari bo'yicha muhim xalqaro tashabbuslarni ilgari surmoqda va ular muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti.

Xususan, O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi

doirasida "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" (2018-yil iyun), "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018-yil dekabr), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019-yil dekabr), "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish" (2021-yil may), "Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" (2022-yil iyun), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish" (2022-yil dekabr), "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" (2023-yil dekabr), "2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" (2024-yil fevral), "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakatlanish va hamkorlik qilishga tayyorligi" (2024-yil iyun) va "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni" (Xitoy bilan birgalikda, 2024-yil iyun) rezolyutsiyalari qabul qilindi.

Barqaror tinchlikning faol tarafdori va xalqaro maydonda hamkorlikni har tomonlama kengaytirish tashabbuskori sifatida O'zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikka doimo katta e'tibor qaratib keladi. 1993-yilda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. Shuningdek, yurtimizda BMTning o'ndan ortiq tuzilma va institutlari, jumladan, BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), BMT Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA), BMT Bolalar jamg'armasi (UNICEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va BMT Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO), BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC), "BMT-ayollar" tuzilmasi, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Xalqaro migratsiya tashkiloti

(XMT) va BMT TD boshchiligidagi BMT ko'ngillilar dasturi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

BMT Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) va BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) kabi agentliklar ham BMT tizimi va BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE)



Birlashgan Millatlar Tashkiloti ishiga hissa qo'shmaypti. Jahon banki ham BMT tizimining mustaqil ixtisoslashgan agentligi sifatida mamlakatimizda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ko'p tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikka qarshi kurash, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish, zamonaviy chaqirig' va va tahdidlarga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlashtirish va qayta tiklash,

qurol-yarog'larni tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal etish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, turizmni rivojlantirish va boshqalar bo'lib qolmoqda.

Ayni paytda BMT va uning tuzilmalari bilan hamkorlik doirasida 135 ga yaqin qo'shma dastur va loyihalar amalga oshirilmogda.

BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus Trast fondi faoliyat yuritmoqda. Yirik xalqaro tadbirlar, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va global kun tartibidagi boshqa dolzarb mavzulardagi anjumanlar hamkorlikda o'tkazilmogda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz BMTning Afg'onistonning mojarodan keyingi tiklanish dasturlarini amalga oshirishiga samarali

hissa qo'shmoqda. Xususan, O'zbekiston — Afg'oniston chegarasida xalqaro gumanitar yuklarni yetkazib berish uchun ko'prik ochildi. Afg'onistonda ko'plab infratuzilma obyektlari qurilmogda, shuningdek, Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiyalar ikki marta (2018 va 2022-yillar) Toshkentda tashkil etildi.

O'zbekiston BMT bilan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha hamkorlikka ustuvor ahamiyat qaratadi. Bu borada davlatimiz rahbari jahon hamjamiyatini ushbu ekologik tahdidning Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan millionlab odamlar turmush tarziga halokati ta'sirini kamaytirishga, Orol dengizidagi tabiiy va biologik muvozanatni saqlashga o'z sa'y-harakatlarini qaratishga da'vat etmoqda.

Ta'kidlash joizki, qadimiy va betakror Samarqand keyingi yillarda qator dolzarb

masalalar bo'yicha global muloqot markaziga aylanadi. O'tgan yil davomida Samarqand shahrida BMT mandati ega uchta forum bo'lib o'tdi. Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi, BMTning cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi tashkil etildi. Bundan tashqari, 2025-yilda Samarqand 1985-yildan beri birinchi marta UNESCO Bosh konferensiyasini o'z qarorgohi tashqarisida o'tkazadigan shaharga aylanadi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, ushbu tadbir UNESCO tarixida sivilizatsiyalar va madaniyatlar o'rtasidagi rang-baranglik va muloqotning o'ziga xos ramzi bo'ladi.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan o'zaro hamkorligining barcha jihatlari va muvaffaqiyatli natijalarini bir maqolada jamlash qiyin. Aytish joizki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar BMTning Mingyillik sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohangdir. O'zbekistonning o'z maqsadlariga birgalikda erishishga sodiqlik mamlakatning davlatlar va xalqlar farovonligi yo'lidagi ko'p tomonlama hamkorlikda faol ishtirok etayotgani bilan tasdiqlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 2021-yilgi sessiyasida so'zlagan nutqida jahon hamjamiyatining e'tiborini hozirgi murakkab sharoitda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari roli va ahamiyati ortib borayotganiga qaratdi. "Jahon taqdiri bilan bog'liq ushbu muhim jarayonlarda aynan Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining yetakchilik rolini yangi mazmun va sifat bilan davom ettirishi zarur", dedi davlatimiz rahbari.

Shu nuqtaiy nazardan, Bosh kotib Antoniu Guterrishning O'zbekistonga tashrif va Toshkentdagi muzokaralar mamlakatimiz bilan BMT va uning ixtisoslashgan institutlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish, aloqalarni yangi g'oyalarga bilan to'ldirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.



Boboravshan G'oziddinov, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mamlakatimiz aholisining 55 foizi yoshlar. Bu — eng ulkan baxtimiz. Ayni paytda katta mas'uliyat hamdir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, komil shaxs qilib tarbiyalash qanchalik mashaqqatli ekanini o'tanalarga yaxshi his etadi. Endi bu mamlakat miqyosidagi yumush bo'lsa, o'n, ehtimol, yuz hissa mushkul vazifaga aylanadi. Chunki yoshlarga berilgan tarbiya, ular egallayotgan ilm ertangi kunni belgilab beradi.

Shu ma'noda, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi ilk qadamlardayoq yoshlar siyosatiga alohida urg'u berilgani bejiz emas. Xabaringiz bor, 2017-yil yoshlar hayotida unutilmas iz qoldirgan, o'shanda Prezidentimiz "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida eng muhim vazifalarni belgilab bergan edi. Shundan so'ng boshlangan ichkil islohotlar sabab ko'pgina yutuqlarga erishildi. Muhimi, yoshlarga oid davlat siyosatida amaliy ishlar salmog'i oshdi.

Ilgari turli tadbirlar o'rini yoshlarning muammolarini hal etish mexanizmi egalladi. O'tkaziladigan yig'ilishlar ham ma'naviy, ham moddiy ko'mak beradigan mexanizmga aylandi. Bunga misol qilib Bo'zator yoshlar festivali, "Besh tashabbus" olimpiadasi kabi qator tadbirlarni aytish mumkin. Shu tariqa barcha yo'nalishda yangicha yondashuvlar asosidagi zamonaviy tizim yaratildi.

Ushbu yo'nalishdagi yangilanish jarayoni izchil davom etmoqda. Masalan, shu yil 27-iyunda davlatimiz rahbarining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga qator qo'shimcha funksiyalar yuklandi. Qaror ijrosi doirasida yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganish targ'ib qilinadi. Shu targ'ibotga munosib tarzda imkoniyat va sharoitlar yanada yaxshilanadi.

BEBAHO XAZINA

Xalqimiz serfazard insonga "Boy ekansiz", deydi. Bu ibora naqadar haqqoniy ekanini demografik muammo bilan yuzlashgan mamlakatlar misolida ko'ryapmiz. Zero, tug'ilish kamayishi ishchi kuchiga ehtiyot o'rtaidigan tortib, xalqning jismonan yo'qolib ketish xatarigacha bo'lgan masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Shu bois, mamlakatimiz aholisining katta qismi yoshlardan iborat ekanini chinakam baxtimizdir.

Lekin har qanday yaltiroq tosh oltin bo'lavermaydi. Chunki bilimi haminqadar,

hunar yo'q yoshlar har qanday jamiyat uchun faqat muammo keltirib chiqaradi. Xalqchil ibora bilan aytganda, sonda bor-u, salmoqda yo'q bo'ladi. Shunday muammoga duch kelmaslik uchun ta'lim va hunar o'rgatishga e'tibor qaratish lozim.

Biz yoshlarni oltin xazira deb atayapmiz. Har qanday boylik og'ir mehnatning samarasidir. Bir gramm oltin tonnalab rudani maydalash, keraksiz toshlarni chiqarib tashlash kabi murakkab jarayondan so'ng ajratib olinadi. Yoshlar ham xuddi o'sha rudaga o'xshaydi. Birgalikda tinimsiz ishlash, imkoniyatlar yaratib, ezigilik chorlash orqali ularni xalq xazinasiga aylantirish mumkin. Shaxs ilm va mehnat orqali kamolga yetadi. Shu ma'noda, yoshlarni ta'lim va mehnat bilan to'la qamrab olishga qaratilgan islohotlarni e'tirof etish kerak.

Jumladan, "Yoshlar balansi" shakllantirilgan edi. Bu borada muayyan ishlar ham bajarildi. Xususan, kasbga o'rgatadigan markazlar ochildi, yoshlar tadbirkorligi uchun imtiyozlar joriy etildi. Shu o'rinda kichik tahlilga e'tibor qaratsak,

Joriy yilda "Yoshlar balansi" asosida 75,7 ming ishsiz yoshning bandligi ta'minlandi. Bular orasida migratsiyadan qaytganlar ham, maktab bitiruvchilari ham bor. Bu ko'rsatkich yil so'ngigacha yana o'sadi.

Shu o'rinda ular bandligi qanday ta'minlandi, degan haqli savol tug'iladi. Albatta, buning uchun yurtimizda huquqiy asos va iqtisodiy imkoniyatlar yaratilgan. Joylardagi mas'ullar bundan to'g'ri foydalana olsa, bas. Nega aynan mas'ullar to'g'ri foydalanishi haqida esa keyinroq to'xtalamiz.

Yoshlar bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri oilaviy tadbirkorlikdir.



Yil boshidan beri birgina oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 528,3 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. Bu mablag' tadbirkorlik qilish istagidagi va shunga imkoniyati yetarli yoshlarga berildi.

Biroq yoshlarning hammasi ham kasb-

hunarga, yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lmaydi. Ochiq'i, bugun katta kuchimiz va quvvatimiz yoshlarga kasb-hunar o'rgatishga sarf etilyapti.

Qadimda temirchilar, kosiblar, kulollar mahallalari bo'lgan. Buni tarix bilan tanish odamlar yaxshi biladi. O'sha zamonlarda hunarmandlar mahalladagi bekorch bolalarni yoniga olib, kasb o'rgatgan. Gohida otanalarning o'zi dilbandini yetaklab borib, ustalarga topshirgan. Shu orqali yoshlar o'z yo'lini topgan. Keyinchalik ko'p sabablar tufayli mazkur an'anaga putur yetdi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining xalqchilligi



haqida so'z ketganida qadimgi ustoz-shogird an'anasi ko'z oldimiza keladi. Joriy yil boshidan beri 28 ming yosh kasb-hunarga o'qitilib, bandligi ta'minlandi. Boshqacha

borasida birinchi o'rinda yoshlarga e'tibor berilmoqda. Chunki insonning kelajakda qanday shaxs bo'lishini nafaqat yoshlikdagi tanlovi, balki ijtimoiy-ma'naviy muhit ham belgilab beradi. Shu o'rinda F.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asari qahramoni Raskolnikovni eslatmoqchimiz. U — talaba, ilm va ma'rifatga tashna qalb egasi edi. Ammo jamiyatdagi qiyinchiliklar, boshqaruvdagi adolatsizlik, og'ir ijtimoiy ahvoli uni jinoyat sari yetakladi. Eng dahshatlisi, u boshqalarga yaxshilik qilishga qodir bo'lish uchun shu yo'lni tanlaydi. Demochimizki, aynan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar har qanday ma'rifatli insonni ham yo'ldan ozdirishi mumkin.

Shu bois, yoshlar muammosini hal etish kasb-hunar va chet tillarga o'rgatish, bandligini ta'minlash hamda bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish bo'yicha qator ishlar qilindi.

Yuqorida yoshlikdagi beboshliklar haqida aytdik. Shunday yoshlar barcha jamiyatlarda bo'lishi tabiiy. Bundan juda katta fojia yasash shart emas, nazarimizda. Biroq befarqlikka sabab ham bo'lmasligi shart. Ularni o'z vaqtda to'g'ri yo'lga boshlash kerak.

Bu borada ham o'ziga xos tajribaga qo'l urildi va u samara bermoqda. Masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 18 ming 100 dan ziyod xodimiga 4 million nafar yosh birkirildi. Ular bilan ishlash uchun 1372 mas'uldan iborat muvofiqshartuvchi shtablar tashkil etildi. Doimiy monitoring qilish bo'yicha "yoshlar.iyro.uz" yagona elektron platformasi ishga tushirildi. Quvonarlisi, otaliqqa olingan yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirish orqali hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashildi. Natijada 32 mingdan ziyod ijtimoiy va maishiy muammo ijobiy hal etildi.

Bundan tashqari, davlat idoralarning qariyb 8 ming mutasaddisiga alohida ishlash talab etiladigan 122 mingdan ziyod yoshlar nomnamo birkirildi. Bugungacha rahbarlar 108 mingdan ortiq yigit-qiz bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Bu sa'y-harakatlar besamir ketayotgani yo'q. Yoshlarning 18 mingdan ziyodiga turli ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatildi. Muammolari hal etildi.

Mazkur natijalar yoshlar qalbida jamiyatga mehri kuchaytiradi, vatanparvarlik ruhini yanada oshiradi. Shu bilan chegaralanib qolmay, yoshlarni tom ma'noda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan avlod etib tarbiyalash borasida yana ko'plab vazifalar izchil bajarilmoqda. Masalan, har chorakda 10 kunlik maxsus dastur asosida "Jasorat maktabi" harbiy o'quv yig'inlari o'tkazib kelinmoqda.

2023-yilda ushbu tadbirlar doirasida 3 ming 860 nafar yoshga yordam ko'rsatildi. Qolaversa, harbiy-sport o'yinlari orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Amir Temur izdoshlari" harbiy-vatanparvarlik spartakiadasi o'tkazildi.

Bundan tashqari, mahallada huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha mas'ullar bilan hamkorlikda ishlagacha doir metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha "Qo'qon shahri tajribasi" asosida ishlanmoqda. Bunda har bir mahalla bo'yicha "yoshlar jinoyatchiligi balansi" shakllantirilib, "Harakatlar rejasi" ishlab chiqildi. Sodir etilgan jinoyatlar shu asosda mahallalardagi yig'ilishlarda keng jamoatchilik ishtirokida tanqidiy muhokama qilindi. Natija esa ijobiy, yoshlar jinoyati dinamikasi o'tgan yilning oxirgi 4 oyida 14 foiz kamaydi. Joriy yilda ham ushbu sa'y-harakatlar davom etmoqda.

NEGA IMKONIYATDAN MAS'ULLAR FOYDALANISHI SHART?

Yaratilayotgan imkoniyatlardan ko'proq mas'ullar to'g'ri foydalanishi kerak, degan fikrga izoh bersak. Ularga yoshlar, umuman, xalqimiz ertasi ishonib topshirilgan. Mahalladagi yoshlar yetakchisi tafakkur kech, boshqalardan ko'ra bir qadam oldinda yurishi kerak. Chunki u davlat siyosatini, yaratilgan imkoniyatlardan boshqalarga qaraganda ko'proq xabardor. Ayni paytda uning ijrosi uchun ham mas'ul.

Yoshlik — beboshlik ham deyiladi. Shu bois, ayrim yigit-qizlar ertangi kun haqida ko'p ham qayg'urmaydi. Ba'zilar ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchilik sabab tushkunlikka tushib qolgan bo'ladi. Shuning uchun ham ularning aksariyati mening huquq va majburiyatlarim nimalardan iborat, jamiyatda o'z o'rnimni topishim, vatanga xizmat qilishim uchun qanday qilib kasb-kor o'rganishim, qayerda ishlashim mumkin, degan savolga javob izlashga ham erinadi. Ishonchsizlik va umidsizlik domiga tushib qolgan bunday yoshlarni topib, qo'lidan yetaklab, jamiyatning faol qatlamiga qo'shish kerak.

Keling, bu boradagi islohotlar samarasi haqida tasavvurga ega bo'lish uchun raqamlarga murojaat qilamiz. Joriy yilda 8,3 million yigit-qiz "Yoshlar balansi"ga kiritilgan edi. Ularni

maqsadida maxsus elektron platforma yaratildi. Shu asosda yoshlar yetakchilari tomonidan "xorijdagi yoshlar balansi" shakllantirildi. Natijada xorijdagi yoshlar bilan doimiy muloqot o'rnatildi.

Bundan tashqari, ularni ishonchli, davlat himoyasini kafolatlash mumkin bo'lgan joylarga ishga yuborish tajribasi ham qo'l kelaypti. Masalan, o'tgan yil misolida olib qaraydigan bo'lsak, 11 ming 335 nafar yosh xorijda ishga joylashirildi. Shundan 4607 nafari tashkilotlarning tartibda xorijga yuborilgan. Qolgan 6728 nafari esa o'tkazilgan muloqotlar davomida xorijdagi o'zbekistonlik yoshlarning aniqlangan masalalarini hal etish doirasida ishga joylashtirilgan.

maqsadida maxsus elektron platforma yaratildi. Shu asosda yoshlar yetakchilari tomonidan "xorijdagi yoshlar balansi" shakllantirildi. Natijada xorijdagi yoshlar bilan doimiy muloqot o'rnatildi.

Bundan tashqari, ularni ishonchli, davlat himoyasini kafolatlash mumkin bo'lgan joylarga ishga yuborish tajribasi ham qo'l kelaypti. Masalan, o'tgan yil misolida olib qaraydigan bo'lsak, 11 ming 335 nafar yosh xorijda ishga joylashirildi. Shundan 4607 nafari tashkilotlarning tartibda xorijga yuborilgan. Qolgan 6728 nafari esa o'tkazilgan muloqotlar davomida xorijdagi o'zbekistonlik yoshlarning aniqlangan masalalarini hal etish doirasida ishga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, ularni ishonchli, davlat himoyasini kafolatlash mumkin bo'lgan joylarga ishga yuborish tajribasi ham qo'l kelaypti. Masalan, o'tgan yil misolida olib qaraydigan bo'lsak, 11 ming 335 nafar yosh xorijda ishga joylashirildi. Shundan 4607 nafari tashkilotlarning tartibda xorijga yuborilgan. Qolgan 6728 nafari esa o'tkazilgan muloqotlar davomida xorijdagi o'zbekistonlik yoshlarning aniqlangan masalalarini hal etish doirasida ishga joylashtirilgan.

ENG FOYDALI SARMOYA

Sarmoya deganda ko'z oldimizga behisob boylik keladi. Aslida, mehri ham, e'tibor va e'tirof ham sarmoya. Yaxshilikning javobi faqat egzulik ekani o'lmas haqiqatdir. Agar mehri, e'tibor bilan moddiy ko'mak berilsa, bu endi ming karra katta sarmoya.

Bugun mamlakatimizda yoshlarning o'qib-o'rganishi, tadbirkorlik qilishi, umuman, orzu-istaklarini amalga oshirishi uchun katta sarmoya ajratilmoqda. Bu ijtimoiy himoyaga muhtojlar his etayotgan mehrida, adashgan yoki egri yo'lga yaqin kelib qolgan yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor timsolida namoyon bo'lmoqda. Bunday ishlarni mamlakat miqyosida amalga oshirish uchun esa, albatta, moddiy rag'bat zarur. Keling, shu o'rinda 2023-yilda yoshlarga yo'naltirilgan sarmoya haqida to'xtalask.

Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun o'tgan yili jami 733,9 milliard so'm sarflangan. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 49 ming 453 talabaga ta'limni davom ettirishi uchun 132 milliard so'm kontrakt puli to'lab berilgan.

Ishsiz yoshlarga ko'mak berish uchun ularning 18 ming 544 nafariga 59,8 milliard so'mlik uskunaga va mehnat qurollari ajratilib, mahallaning o'zida bandligi ta'minlangan. Nigoriylik bor va bemor 31 ming 459 yoshga tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan. Ularning davolanishi uchun 38,1 milliard so'm yo'naltirilgan.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan 48 ming nafar yoshga kompyuter xaridi uchun 357,5 milliard so'm iste'mol krediti ajratilgan. Umlarning foiz to'lovi uchun 48 milliard so'm yo'naltirilgan.

Aslida, mazkur ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ushbu raqamlarni jamlab, ularni insonlar taqdiriga qiyos qilib o'rgansangiz, qanchadan qancha oilalarga quvonch ulashilganini tasavvur qilishingiz mumkin.

Xalqimizda ajoyib odat bor: ba'zan bola tug'ilganida, gohida u oila qurib, o'zi alohida yashash uchun ko'ch chiqayotganida yaqinlari birorta sigir yo'q beradi. Uni bosh mol deb atashadi. Yoshlarga shu yo'sin sarmoya qilingan va unga kelajakda qo'lga kiritiladigan mol-dunyoning asosi deb qaralgan. Shu bois, bu molni sotish o'ylanib eng so'nggi chorasi bo'lgan.

Esimda, bir safar qishloqdoshlarimizdan biri bosh molni sotoqchi bo'lganida mahalla ahli pul yig'ib bergan va "Nima bo'lsa ham uyingdagi barakani bozorga solma", degan edi.

Hayotiy tajribada ko'p kuzatganimiz. Bosh mol bo'lgan sigirning buzoqlari yosh oilaning farzandlarigacha yetib borgan. Oila bilan birga mol-davlatning ham "sulolasi" shu yo'sin davom etgan.

Ayni chog'da yurtimizda yoshlar hayotini o'nglash uchun kiritilayotgan sarmoyani o'sha qadim an'anaga o'xshatgani keladi. Faqat buni navqiron uka-singillarimiz yurakdan his etishi kerak. Buning uchun qadim qadriyatlariga amal qilib, bosh molni saqlab qolish, uni ko'paytirishni undalay olishi lozim.



Nuqtayi nazar

AFZALLIGI KO'P, MAS'ULIYATI HAM KAM EMAS



Jasurbek ATANIYAZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotimiz salohiyatini oshirish, uning global ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat zanjiriga integratsiyasini yanada mustahkamlash vazifasi qo'yilgan. Keyingi olti yilda mana shunday natijaga erishishimiz kerak. Buning uchun mamlakatlar iqtisodiyoti va odamlar turmush farovonligiga xizmat qiluvchi tuzilma — Jahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bu borada dadil va ishonchli qadamlar tashlamog'da. Ta'bir joiz bo'lsa, yo'lda to'xtab qolgan poyezd harakatga kela boshladi. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotining 2026-yili Kamerunda bo'lib o'tadigan 14-vazirlar konferensiyasigacha a'zo bo'lishni reja qilyapti. Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini yanada yaxshilab, tovar ayirboshlash hajmini oshiradi, yangi bozorlarga chiqish orqali tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Mazkur tuzilmaning asosiy maqsadlaridan biri proteksionizm (mamlakatning qaysidir yo'nalishda tashqi dunyodan himoya qilinishi) ga qarshi kurashishdir. Shu jihatdan u xalqaro savdo munosabatlarida a'zo mamlakatlar uchun qulay huquqiy tizim taqdim etadi. Har qanday qaror ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida konsensus — umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi. Shu paytgacha 200 dan ortiq savdo nizosi o'zaro manfaatlar doirasida hal etilgan.

Ushbu kelishuvlar asos bo'lgan tamoyillar orasida kamsitilmaslik, erkin savdo shartlari, raqobatni rag'batlantirish va sust rivojlangan mamlakatlar uchun qo'shimcha qoidalarga alohida urg'u beriladi. Shu bilan birga, JST a'zo mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat'iy talab qiladi. Qator majburiyatlar ham mavjud. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni unga moslashtirish va amaliyotga joriy etish, inson resurslari hamda institutsional salohiyatni mustahkamlash, sanoat sohasida barqaror rivojlanishga erishish shular sirasidan. Aksariyat mamlakatlarda ushbu vazifani bajarish oson kechmaydi. Chunki arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xorijiy korxonalar bilan raqobatlasholmaydigan milliy korxonalar tanazzulga uchrashi mumkin. Bu uzoq muddat va murakkab muzokaralardan iborat jarayon.

Bugun dunyodagi eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotga 164 davlat a'zo. Ularning global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 98 foizdan ortiqni tashkil etadi. Mamlakatlar u bilan hamkorlik qilish orqali kamsitilmaydigan va adolatli savdo tizimiga qo'shiladi. Tariflarni himoya qilishning maksimal darajasi hamda import kvotalari bekor qilinishiga erishadi. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun tovarlarni arzon narxda import qilish kabi muhim afzalliklarga ega bo'ladi.

Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lish jarayonida Xalqaro savdo markazi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u davlatlarning tashkilot haqida xabardorligini oshirish, tashqi savdo rejimi to'g'risidagi memorandum va qonunchilik bilan bog'liq harakatlar rejasini ishlab chiqishda ko'maklashadi. Integratsiyalashgan xizmatlar va tovarlar bo'yicha dastlabki takliflarni tayyorlashda yordam beradi. Xalqaro savdo faoliyatiga oid turli masalalar bo'yicha bilim va ko'nikmalar bazasini yaratish, muzokaralarda samarali



ishtirok etish uchun konsalting xizmatlari ko'rsatadi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishga tayyorgarlik jarayoni 1994-yili boshlangan. Biroq bu davrda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat tufayli jarayon 2005-yilda muzlatib qo'yildi. 1995-yili ariza topshirilgan bo'lishiga qaramay, faqat 2017-yildan boshlab ijobiy siljish kuzatilyapti. Bunga so'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlat ishtiroki qisqartirilib, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor tamoyillari keng joriy qilinayotgani, xususiylar tadbirkorlikka rag'bat berilib, “yashirin” iqtisodiyotga

2024-YIL MARTDA O'ZBEKISTON HUKUMATI JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH DOIRASIDA 11 DAVLAT BILAN MUZOKARALARNI YAKUNLADI. ULARDAN 9 TASI BOZORGA KIRISH BO'YICHA MUZOKARALARNI YAKUNLASH TO'G'RISIDAGI PROTOKOLLARNI IMZOLADI.



qarshi kurash jadallashayotgani, tadbirkor-ushibilaronlarimizning dunyo bozoriga intilayotgani katta turtki berdi. 2016-yildan boshlangan mana shunday iqtisodiy siyosat tufayli 2018-yil martidan O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayoni qayta boshlandi. 2019-yil iyulida bu borada Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandum, tovar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastlabki takliflar taqdim etildi.

“O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish” bo'yicha ishlab chiqilgan besh yillik loyiha Yevropa Ittifoqi tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Mazkur loyiha 2020-yil fevralda boshlangan bo'lib, unda mamlakatning tuzilmasiga qo'shilish jarayonida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarni qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizning tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni ishchi guruhning 2020-yil iyulida bo'lib o'tgan to'rtinchi yig'ilishi bilan rasman qayta tiklangan. Shundan so'ng 2022-yil iyun, 2023-yil mart va 2023-yil noyabr oylarida yana uchta uchrashuv o'tkazildi.

2024-yil martda O'zbekiston hukumati Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida 11 davlat bilan muzokaralarni yakunladi. Ulardan 9 tasi bozorga kirish bo'yicha muzokaralarni yakunlash to'g'risidagi protokollarni imzoladi.

O'zbekistonning tashkilotga kirish jarayoni kamida 15 ta bitimda belgilangan majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olishini taqozo qiladi. JST bitimlari murakkab bo'lib, ular keng doirada jahon savdosi masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlarga tayanadi. Mazkur bitimlar a'zo mamlakatlarning tashqi savdo imkoniyatini oshirishga qaratilgan diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, savdo to'siqlarini bartaraf etish, raqobatbardoshlikni oshirish, yetarli darajada rivojlangan davlatlar uchun qulay shart-

sharoit yaratish, savdoni tarif usullari bilan tartibga solish, savdo siyosati halolligi kabi muhim tamoyillarga asoslanadi. Mazkur tamoyillar mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etib, mahsulotlarning erkin harakatini ta'minlaydi. Yangi bozorlarga kirib borish orqali raqobat muhitini shakllantiradi. Bu esa rivojlanmagan, o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarga har jihatdan qulay. Aslida, JSTning bosh g'oyasi a'zo mamlakatlar o'rtasida erkin savdo siyosati yuritish uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Hozir O'zbekiston 200 ga yaqin mamlakat bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining salmoqli qismi JST tarkibiga kiruvchi davlatlar bilan bog'liq. 2023-yil yakuniga ko'ra, mamlakatimiz jami tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'pi, ya'ni 58,2 foizi aynan shu davlatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bunda Xitoy ulushi 21,9 foizni, Rossiya 15,8, Qozog'iston 7, Turkiya 5, Koreya Respublikasi 3,7, Germaniya 1,7, Fransiya 1,6 va Qirg'iziston 1,5 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, mamlakatimiz eksport geografiasini hamda JST tarkibiga kiruvchi asosiy hamkor davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini ko'laminani yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Tashkilotga kirish O'zbekistonning xalqaro savdo qoidalarni ishlab chiqish jarayonida to'laonli ishtirokini ta'minlaydi. A'zo mamlakatlar bozoriga kirish uchun teng huquqli imkoniyat paydo bo'ladi. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport imkoniyati oshadi. Tashqi savdoda xalqaro standartlar qoidalarga muvofiq milliy standartlar ishlab chiqish va eksportchilarga chet el bozori talablariga moslashishda yordam beradi. Raqobat muhiti yaxshilanib, monopoliyaning oldi olinadi. Bu jarayonning kuchayishi iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarni va investitsiyalarni jalb etishni faollashtiradi. Jahon miqyosidagi savdo siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqi beriladi. Eksportchilarning tashqi savdodagi huquqi himoya qilinadi.

YOSHLAR SIYOSATI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI VA YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN USTUVOR VAZIFALAR

28.06.2024-yildagi yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi yuzasidan

14 ta tuman tanlab olinib,

zamonaviy kasblarga o'qitish markazlari ochiladi va to'liq jihozlab beriladi.



Ushbu markazlar yosh tadbirkorlarga 1 yil imtiyozli davr bilan 10 yilga ijaraga beriladi.

Jamg'arma Surxondaryo tajribasi asosida har bir viloyatda bittadan Yoshlar sanoat zonasida sanoat binolarini quradi.

Bu joylar “sanoat ipotekasi” asosida yuqori qiymat yaratadigan loyihalar uchun yoshlarga 7 yilda bo'lib to'lash sharti bilan beriladi. Bunda yoshlardan birinchi yil uchun to'lov undirilmaydi.

HAR BIR VILOYATDAGI BITTADAN “BARKAMOL AVLOD” MARKAZIDA “KREATIV SANOAT PARKLARI” TASHKIL QILINADI.

Ularga IT-park rezidentlari uchun nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

“Kreativ sanoat parklari” oliygohlar va yirik ishlab chiqaruvchilarga birlashtiriladi.

Jamg'arma bu yerdagi yoshlarning startaplariga uch yilga

100 million so'mgacha ssuda beradi.

Ushbu yosh tadbirkorlarga faoliyatini kengaytirish va aylanma uchun keyinchalik

100 million so'm imtiyozli kredit beriladi.

“Kreativ sanoat parklari”ni rivojlantirish uchun 2024-yilda 10 million dollar yo'naltiriladi.

YOZ MAVSUMIDA “YANGI O'ZBEKISTON VATANPARVAR YOSHLARI” DASTURI ASOSIDA:

2 million yoshlar sport va vatanparvarlik tadbirlari bilan qamrab olinadi.

Jamoaviy sport o'yinlari, shaxmat, stol tennis, badminton, yakka kurash, suzish bo'yicha tuman, viloyat hokimlari, vazirlar kubogi o'tkaziladi.

Mahallalarda maktab, texnikum, oliygoh, sihatgoh va oromgohlar zallarida, parklarda kitobxonlik, she'rxonlik, raqs, musiqa va kino kunlari tashkil qilinadi.

FREE WiFi

“Turon” teatri tanlovi har yili maktab o'quvchilari orasida o'tkaziladi. G'olib bo'lgan o'quvchilar ijod maktablariga qabul qilinadi.

Istirohat bog'lari, sayilgoh va xiyobonlarda bepul Wi-Fi o'rnatish choralarini ko'riladi.



Har bir talaba ta'lim standartlari yuqori va rivojlangan mamlakatlarda o'qishni orzu qiladi. Ammo aksariyat yoshlarga chet el universitetlariga hujjat topshirish jarayoni qiyin bo'lib ko'rinadi. Chunki bu jarayon mahalliy universitetlarga kirishdan ancha farq qiladi. Qo'shimcha imtihonlar topshirish, barcha hujjatlarni tarjima qildirish, so'ng uni tasdiqlatish, universitet va stipendiyalarga to'xtovsiz ariza topshirish mushkul ishdek tuyuladi.

to'g'ri to'ldirilgani, ish tajribasi, orttirilgan bilim, o'qishdan asosiy maqsadga e'tibor qaratiladi. Nomzod ajralib turishi kerak.

Hujjat topshirish haqidagi asosiy ma'lumotlar esa talaba tanlagan universitet veb-saytida yoritilgan bo'ladi. Umuman olganda, odatda reytingi yuqori universitetlar hujjat topshirish uchun alohida platforma yaratib oladi. Masalan, Amerikada Common Application degan platforma bor. U keng qidiruv tizimiga ega bo'lib, unda mamlakatdagi barcha universitetlar qabul kvotasi, yo'nalishlari, dastur davomiyliigi, ta'lim tili, grant dasturlari haqida ma'lumotlar hamda OTMLar rasmiy saytiga havola ham berilgan. Ixtalagan odam u yerda 20 ta universitetga hujjat topshirishi mumkin. Men Common Application orqali 2 ta universitetga topshirdim.

Qolgan universitetlarga esa OTMLarning qabul uchun onlayn ariza yuborish tizimi orqali ham hujjat topshirganman. Onlayn hujjat topshirishda odatda xalqaro talabalar bilan shug'ullanadigan konsultant yordam beradi. O'sha odamdan hujjat topshirish jarayoni, universitetga qanday kirish, nimalar kerakligini bemalol so'rab olsa bo'ladi. Ammo ba'zida konsultant bo'lmasligi ham mumkin.

talabalarining baholariga, IELTS, SAT sertifikati ballari, litsey yoki maktabdagi bahosiga juda katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa, AQSH universitetlari. O'qishdan tashqari nimalar bilan band bo'lganingiz ham inobatga olinadi. Misol uchun, volontyorlik, konferensiyalarda qatnashganlik, sport sohasidagi yutuqlar shular jumlasiga kiradi.

Komissiya arizalarni ko'rib chiqib, nomzodlarning 90 foizigacha qismini chiqarib tashlaydi. Bir oy o'tgach, stipendiya qo'mitasi ingliz tilida suhbat o'tkazadi. Muloqot o'rtacha 20-30 daqiqa davom etadi. Savollarning aksariyati insho bilan bog'liq. Xorijiy

Universitetlardan katta miqdorda stipendiya olishingiz, to'liq byudjet hisobidan o'qishingiz va ta'limning barcha moliyaviy jihati qoplanishi mumkin. Hatto kontrakt asosida o'qishga kirsangiz ham semestrlar davomida byudjet hisobiga o'tishingiz va eng yuqori darajali stipendiyalarga sazovor bo'lishingiz ehtimoli yo'q emas. Salohiyatingizga qarab OTM barcha ta'lim xarajatingizni qoplab beradi yoki kontrakt asosida o'qishingiz mumkin.

Xorijda o'qish yangi va turli odamlar bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyat. U yerda har xil mamlakatlardan kelgan hamfikir va umumiy qiziqishlarga ega talabalarni uchratasiz. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro hamdo'stlik aloqalari rivojlanishida katta yordam beradi. Hatto qadriyat va qarashlaringiz mos kelmaydigan odamlarni uchratsangiz ham bu sizga ochiq yoki tanqidiy fikrlash qobiliyatingizni rivojlantirishda qo'l keladi. Eng muhimi, bu jarayonda dunyoqarashingiz kengayib boradi va kelgusida sizga yangi loyihalarni uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Atroningizda gilardan o'rganishdan tashqari siz

shartnomalari mavjud. Bu esa karyeringizni nufuzli kompaniya va servislarda boshlash imkonini beradi. Eng asosiysi, sohangizning haqiqiy mutaxassis bo'lib yetishasiz. Chunki bu darajaga yetmaguningizgacha universitet sizga diplom bermaydi.

SIRLI MASALLIQNING O'ZI YO'Q!

— Grant yutib olishning hech qanday siri yo'q, — deydi Zulfiya Karimova. — Grant yutish uchun ikki yillimni sarladim, lekin

HAR BIR GRANTNING O'Z TALABLARI BOR

— Nufuzli universitetlar ajratadigan grantlarning talablari turlicha bo'ladi, ba'zilarida ham universitetlarga, ham grantga

Intilganga tole yor

XORIJDA

bepul o'qish uchun qanday yo'l tutmoq kerak?



Azizbek YUSUPOV, jurnalist

Bundan tashqari, chet elda o'qish narxi yuqori bo'lgani sababli bu orzuga erishish ko'pchilik uchun oson emas. Xorijda ta'lim olish talabalardan katta mablag' talab qilsa-da, mana shu pulni to'liq yoki qisman tejab qolish uchun imkoniyat ham talaygina. Bu imkoniyat esa grantlardir.

Bugun turli yo'nalishlar uchun har xil grantlar ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan imtiyozlardan kelib chiqqan holda ehtiyojmand talabalarni qo'llab-quvvatlash dasturlaridan tortib, qobiliyati talabalarni taqdirlashgacha bo'lgan to'liq yoki qisman grantlar va ta'lim stipendiyalari kabi qulayliklar taqdim etilgan. Ular, asosan, xalqaro tashkilotlar, hukumatlar hamda ta'lim muassasalari, ayrim hollarda yakkaxshlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Aksariyat grantlarni yutish deyarli imkonsiz ko'rinsa-da, bundan boshqa yana ko'plab imkoniyatlar ham mavjud. Chet elda o'qish uchun grant yutish, volontyor sifatida qatnashish yoki chet elda amaliyot dasturida taqdim olib borish biz o'ylagandan qiyin yoki osonroq bo'lishi mumkin. Faqat imkoniyatlarni aniqlab olish kerak.

Xorijda o'qishni ko'zlagan yigit-qiz moliyaviy reja tuzishda grant va stipendiya dasturlariga ariza berib ko'rish imkoniyatini inobatga olishi tabiiy. Chunki grant uchun ariza berish faqat foyda keltiradi. Hech bo'lmaganda grant dasturlarida ishtirok etish ko'nikmasini shakllantiradi. Grant yutishga intilish esa oson kechmasligi mumkin. Hujjat topshirish muddati, talablar va boshqa barcha ma'lumotlarni ipidan ignasigacha bilishga harakat qilish, ariza berishdan avval grantni e'lon qilgan tashkilot qanday faoliyat bilan shug'ullanishi, maqsad va vazifalari nimalardan iboratligi, tashkilotning qadriyatlarini, nimani muhim deb bilishini tushunish dardkor. Qolaversa, o'z kelajigini qanday ko'rishi, grant ajratishdan nima maqsad ko'zlaganini o'rganish harakat, shijoat va vaqt talab qiladi.

Har qanday muhim hayotiy qaror singari chet elda o'qishdan avval afzallik, kamchilik va qiyinchiliklari borligini hisobga olib, oldindan bilish zarur qilmaydi. Xo'sh, xorijda grant asosida o'qish uchun, aslida, qanday yo'l tutilsa, to'g'ri bo'ladi? Moliyaviy rejalarni qay tartibda tuzish kerak, qaysi universitetlarning grant dasturlari aynan o'zbek yoshlari uchun mos? Shu kabi savollarga turli mamlakatlardagi ta'lim dargohlariga hujjat topshirib, grant sohibi bo'lgan hamyurtlarimiz bilan suhbat davomida javob topishga urinish ko'rdik.

alohida topshirish talab etiladi, — deydi xalqaro jurnalist Zulfiya Karimova. — Misol uchun, Germaniyaning DAAD granti va Britaniyaning Chevening granti xuddi shunday. Yevropaning ERASMUS dasturiga esa faqat grantga hujjat topshirish kifoya, universitetlarga shart emas.

BIR NECHTA OTMGA TOPSHIRISHNING QULAYLIKLARI

— Avvalo, qaysi davlatlardagi universitetlarga, qanday hujjat va qachon topshirilishi, nimalar talab etilishi bo'yicha puxta reja tuzish kerak, — deydi Sapiyensa universiteti magistranti Azamat Haydaraliyev.

— Bir nechta universitetga topshirishning qulay jihati — talablar o'xshashligi. Bitta universitet uchun yozgan motivatsion xatni boshqa universitetga shablonini olgan holda yozish mumkin, bu ancha qulaylik beradi, vaqtni tejaydi. Ish va o'qish joyidan olinadigan tavsiya xati esa faqat universitet va yo'nalishi bilan farqlanadi. Albatta, qaysi universitetda tahsil olish har bir odamning maqsadi, moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqadi. Muddat tugashini kutmasdan erta ariza berish esa eng yaxshi qaror. Grant qoidalarida erta ariza berganlik uchun hech qanday afzallik nazarda tutilmagan bo'lsa ham barcha arizalarni mutaxassislar tekshirishini unutmash kerak. Ular, aslida, boshqa joyda ishlaydigan va saralash uchun mas'ullardir. Arizalar, asosan, muddat oxirida ko'payib ketishi natijasida jismonan ulgurmaslik sababli kech yuborilgan insholar to'liq o'qilmay, ko'z yordam orqali baholalanishi mumkin. Shuni yodda tutmog'imiz kerakki, hech qaysi tashkilot o'qishni xohlaydigan talaba haqida batafsil ma'lumot olmasdan turib grant ajratmaydi. Xorijdagi universitetlar, birinchi navbatda,

mamlakatlarga o'qishga kirish muayyan mezonlar asosida bo'lmaydi. Unda talabning barcha imkoniyatlari o'rganib chiqiladi. Ayniqsa, dunyoqarashi, kreativ fikrlashi va motivatsiyaga asoslangan inshosi katta ahamiyat kasb etadi. Bu nomzodning tanlagan universitetida o'qish uchun qanchalik ishtiroqmand ekanini va to'plagan tajribasini vataniga qaytgach, qanday qo'llashni rejalashtirayotganini bilish uchun qilinadi. Nomzodlarga qanchalik berilgan ekanini, ambitsiyalari va yetakchilik salohiyatidan kelib chiqib baho beriladi.

OSON EMAS, AMMO YAKUNI GO'ZAL...

— Chet elda o'qish oson bo'lmaydi va istalgan talaba madaniyatlar qarama-qarshiligi kabi turli qiyinchiliklarga uchrashi ehtimoli yo'q emas, — deydi 2020-2022-yillarda Namsul universitetida tahsil olgan Erkin G'aybulloyev. — Lekin bu qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali har kim asta-sekin hayotda mustaqil qadam tashlashni o'rganadi. Bu, o'z navbatida, ishonchning ortishiga yordam beradi. Masalan, chet eldagi universitetga o'qishga kirganindan keyin viza olish, sug'urta rasmiylashtirish, safar uchun chipta sotib olish, manzilga yetib borishdan avval turar joy masalasini hal qilish, safar oldindan chet elda o'qish uchun kerakli ashyolar yig'ish va albatta, yetib borganidan keyin turli rasmiy va norasmiy jarayonlardan o'tish talab etilgan. Bularning barchasini mustaqil bajarib, yakunda juda katta tajribaga ega bo'lganman.

ham ularga vataningiz hamda madaniyatingiz haqida aytib berishingiz mumkin.

Bundan tashqari, chet el universitetlari juda mehmondo'st, deb ayta olamiz. Ular har bir talabani yuqori darajali qulay yotoqxonaga bilan ta'minlaydi. Chunki bunday nufuzli

haliyomuz o'zimiz istagan universitet grantini yutib ololganim yo'q. Aytmogchimanki, to'xtovsiz harakat bilangina maqsadga yaqin kelishingiz mumkin. Oson kelgani oson ketadi. Bundan tashqari, chet elda o'qishni reja qildingizmi, bilimgi, u eragayoq amalga oshadigan maqsadlardan emas. Shunday ekan, sabringizni sinaydigan, asabingizni egovlaydigan, kayfiyatingizga ta'sir o'tkazish ehtimoli katta bo'lgan qiyinchiliklarga tayyor turing!

ILMGA YETGAN OYOQ QANOTGA AYLANUR...

Iqtidorli va istiqbolli yosh mutaxassislarni izlab topishga qaratilgan faoliyatni tubdan takomillashtirish hamda modernizatsiyalash, xorijdagi nufuzli ta'lim va ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish, innovatsion va boshqa kompaniyalarda maqsadli ta'lim olishini hamda stajirovkadan o'tishni tashkil etish, chuqur bilimga ega, zamonaviy fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini shakllantirish va davlat xizmatiga jalb qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston madaniy, ilmiy hamda ma'naviy merosini keng targ'ib qilish, ommalashtirish, vatandoshlarimizning istiqomat qilayotgan mamlakatida o'zbek tili, madaniyati hamda an'analarni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ular safida bo'lishni har bir tirishqoq talaba o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Chunki mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi iqtidorli va istiqbolli, ayniqsa, yetakchi xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida o'qib, ilg'or bilim, qimmatli ilmiy va amaliy tajribaga ega mutaxassislarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

YOSHLAR SIYOSATI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI VA YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN USTUVOR VAZIFALAR

28.06.2024-yildagi yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi yuzasidan



Yangi o'quv yilidan oliygothlar qoshidagi jami 73 ta akademik litseyda tajriba tarzida "Xalqaro bakalavriat" va "A-level" dasturlari joriy qilinadi.



Xorijiy oliygothlarda o'qish uchun topshiriladigan SAT imtihonida yuqori natija ko'rsatgan yoshlar o'zimizning oliygothlarga ham qabul qilinadi.



OLYGOHLARNING BIRINCHI VA IKKINCHI KURSARIDAGI FANLAR TEXNIKUMLAR BILAN UYG'UNLASHTIRILADI.

Texnikumning birinchi va ikkinchi yilida yaxshi o'qigan yoshlarga xalqaro klassifikatsion tegishli darajasiga mos keluvchi diplom beriladi.

Ular oliygothning ikkinchi yoki uchinchi kursidan o'qishni kontrakt asosida davom ettirish imkoniyati beriladi.

Kasbi bo'yicha malaka darajasi va ikki yillik staji bor yoshlar korxonaga tavsiyasi bilan oliygothlarga kontrakt asosida qabul qilinadi.

Nogironligi bo'lgan yoshlarga chet tili bo'yicha milliy sertifikat (CEFR) olishda kompyuterda imtihon topshirish uchun sharoit yaratiladi.

Oliygoth vazirlik va korxonalariga tegishli laboratoriyalarning yagona onlayn platformasi yaratiladi.

IT SOHASIDA:



O'zini o'zi band qilgan yoshlarga IT-park rezidenti maqomi beriladi.



Ular uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod qilinadi.

IT-kompaniyalaridagi kabi tibbiyot sport va ofisidan foydalanish uchun "ijtimoiy karta" beriladi.



Yoshlarni ushbu sohaga jalb qilish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

YOSHLARNI KATTA DAROMAD KELTIRADIGAN KASBLARGA O'RGATISH MAQSADIDA:

Har yili 100 million dollar ajratiladi. Investitsiya vazirligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligi jang'armasi Yoshlar ishlari agentligiga o'tkaziladi.

Eng ko'p ish o'rni yaratgan, fidoyi yosh tadbirkorlar jang'arma kengashiga kiradi. Jang'arma rahbarini ham ushbu yoshlarning o'zi saylaydi.

Jang'arma yoshlarning eng yaxshi 500 ta loyihasini tanlab oladi, tayyor biznesga aylantirib, daromad keltirishgacha barcha jarayonlarda ko'maklashadi.

Jadid she'riyatining yetakchi MOTIVLARI




Qudosh QAHRAMONOV, filologiya fanlari doktori, professor

Jadid adabiyoti, jumladan, she'riyati vujudga kelgan dastlabki davrida ko'proq tashviqiy xarakterda bo'lib, ularda ma'rifatparvarlik, islohotchilik motivlari yetakchilik qilgan. Jadidlar garchi ijodiga istiqloq g'oyalari singdirgan bo'lsa-da, kurashchanlik ular she'riyatning asosini tashkil etmagan. Buni shu davrda birin-ketin ijod maydoniga kirib kelgan Abdulla Avloniy, Tavallo, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat kabi ijodkorlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Abdulla Avloniy ilmsizlik, tarbiyasizlik millatni jaholat botqog'iga botirganini tasvirlar ekan, xalqni ma'rifat orqali yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Jumladan, shoir "Ahvoli o'lamdan bir namuna" she'rida o'sha davrdagi millat fojiasini quyidagicha tasvirlaydi:

Balo toshi yog'ildi boshimizga xobi g'afatdan, Mijoz sust o'lub avlod, millat tushdi quvvatdan, Bilimsizlik tushirdi, yiqdi bizni qadru qimmatdan, Jaholat quvdi bizni xonmonu molu sarvatdan...

Ko'rinib turibdiki, shoir millat fojiasining bosh sababchisi sifatida ilmsizlik va jaholatni tasvirlamoqda. Biroq bu tipdagi aksar she'rlarning yakunida ilm-ma'rifat orqali



millatni istiqbolga yetkazishga ishonch bildiradi. Shoirning "Millatimizdan bir manzara" she'rida ham ilm-ma'rifat millatni g'afat uyusidan uyg'otuvchi kuch sifatida targ'ib qilinadi.

"Istiqboldan orzularim", "O'z maishatimizdan", "Millat haykalgiga xitob", "Haqiqat o'lsun bu xayol" kabi she'rlarida ham ilmsizlik va jaholat millatning zavoli ekani yoki bu shaklda tashviqiy xarakterda o'z ifodasini topgan. Shoirning "Oila munozarasi" she'rida esa ota va onaning bahs-munozarasi orqali ilm-ma'rifati egallashning ahamiyati sodda va samimiy ravishda poetiklashtiriladi. Bunda ota farzandlarini o'qitish va shu orqali ma'rifati inson bo'lib yetishishini istasa, ona farzandlarini o'qitish bilan biror maqsadga erishish amri mahol ekanini ta'kidlaydi.

Dialog shaklida yozilgan she'riyat Avloniy konsepsiyasi o'zining to'la-to'kis ifodasini topgan. Ilm-ma'rifat millatni, vatanni johillikdan, zolimlikdan xalos qiladi deb hisoblaydi shoir. Shunga ko'ra, ilm-ma'rifat mavzusidagi she'rlar millatparvarlik va vatanparvarlik motivlari bilan uyg'unlashib, yaxlit tushunchaga aylanadi. Jumladan, shoirning "Fig'oni bulbul", "Turkiston tufrog'ina xitob",

"Istiqboldan orzularim" kabi bir turkum she'rlarida millat va vatan orzulari yetakchi poetik obrazga aylanganini ko'ramiz. Shoir ushbu obrazlar orqali millat va vatanning o'ziga xos timsolini yaratadi. Chunonchi, "Fig'oni bulbul" she'rida an'anaviy bulbul va gulzor obrazlariga murojaat qilar ekan, uni mazmunan yangilaydi. Mumtoz she'riyatda muhabbat motivini ifoda etgan mazkur obrazlar ijtimoiy mazmun bilan boyitilib, vatan timsoli ifodasiga xizmat qiladi. Gulzor va faryod etayotgan bulbulning guli — vatan.

Ma'rifatparvarlik g'oyasi asosida millat va vatan tuyg'ularini aks ettirish Tavallo she'riyatining bosh motivlaridan biridir. Millat, milliyat tushunchalariga Avloniy va Tavallo qadar she'riyatimizda bunalchilik ko'p e'tibor berilmagan. Tavallo esa har bir she'r millat, uning shu kundagi ahvoli, jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, tarixiga kelib bog'lanadi.

Darhaqiqat, Turon, Turkiston kabi so'zlar Tavallo she'riyatida ko'plab uchraydi. Shoir she'rlarida millatga yordamlashish uchun, eng avvalo, ularni ilmiy, ma'rifati qilmog' kerak, degan g'oya yetakchilik qilganini ko'ramiz.

Bu xususiyatlar shu davrda yashab ijod qilgan Sirojiddin Sidqi va Muhammadsharif So'fizoda asarlarida ham ifodasini topgan.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surgan Avloniydan tortib, Hamzagacha bo'lgan aksariyat ijodkorlar nafaqat o'z ijodi, balki amaliy faoliyati bilan ham xalqni g'afatdan uyg'otishga intilgan. Avloniy ham, So'fizoda ham maktab ochib, xalqning bolalari o'qitgan, darsliklar yaratgan.

Jadid adabiyotining ilk davrlaridagi yo'nalishlardan birini ma'rifatparvarlik motivlari tashkil etadi va ularda ilm-ma'rifat jaholatga qarshi qo'yiladi. Xalqni jaholat botqog'idan qutqarish, mustamlaka zulmidan ozod qilish uchun ma'rifati qilib o'zimizni anglatish, islohotlar yo'li bilan asta-sekin maqsadga erishishga targ'ibot etish bu yo'nalishning bosh konsepsiyasidir.


Jadid she'riyati ijodiy konsepsiyasining muhim yo'nalishlaridan birini millatning ozodligi motivlari tashkil etadi. Bu motivning yetakchi g'oyalari erk, ozodlik, mustamlaka zulmiga qarshi kurashdir. Milliy ong'ish motivlari ko'proq oktabr to'ntarishidan keyin vujudga kelganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri hayotda bo'layotgan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda kechadi. Zero, xunrezlik bilan amalga oshirilgan oktabr to'ntarishi insoniyat tarixida mudhish bir sahifa ochdi. Ushbu to'ntarish tufayli Yer kurrasining uchdan bir qismida misli ko'rilmagan fuqarolar urushi avj olib ketdi. Mana shunday paytda nafaqat odam odamga, balki aka ukaga, ota bolaga dushman bo'ldi. Turkistonda ham avj olgan fuqarolar urushi xalqimizning chor mustamlakachilariga qarshi kurashiga aylandi.

Fitrat oktabr to'ntarishidan keyin bir turkum she'rlar yaratdi. Bu she'rlar o'z g'oyasi, poetik mazmuni hamda ifoda usuli bilan XX asr she'riyatini yangilashga xizmat qildi. Shoir she'rlarida realistik ifoda orqali davr va shaxs fojiasining yangi-yangi qirralarini ochdi. "Mirrix yulduziga", "Ovunchoq", "Nega bo'yla?", "Behbudiyning sag'anasin izladim", "Sharq", "O'gut" kabi she'rlari shu jihatdan xarakterlidir.

Shoir "Mirrix yulduziga" she'rida an'anaviy yulduz obraziga yangicha poetik ma'no yuklaydi, uni milliy uyg'onish motivlari bilan boyitadi hamda davr va shaxs fojiasining realistik tasvirini yaratadi. Lirik qahramon Mirrix yulduziga murojaat qilar ekan, Yerd sodir bo'layotgan tubanliklar, adolatsizliklar sening ham bag'ringda bormi, deya so'raydi. Shoir she'rida "yo'qil"lar qonini chog'ir kabi ichganlar haqida so'zlar ekan, ikkita manfur obrazning siyosini yaratadi. Bular kelgindi bosqinchilar hamda ichki xoinlar obrazidir. Shoir butun nafaratni, qahr-g'azabini shularga qaratadi. Ularni yurt fojiasining asosiy sababchilari deb biladi.

Bormi senda bir o'lkani yondirib, O'z qozonin qaynatg'uvchi xoqonlar? Bormi senda qonin, urushi yo'lda Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

Shoirning "Sharq" she'ri ham fojiaiydir. Unda garchi Sharq manzarasi, deya atalsa-da, aslida, vatanimizdagi xunrezliklar, shoir ko'z o'ngida kundalik hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning real manzaralari tasvirlanadi.



Shoir vatanning portretini chizar ekan, uni Allohning o'zi o'ngdan va so'ldan saqlagan — har tomondan ko'rkam va haybatli tog'lar dushman muhofaza qiluvchi askarday o'rab olganini tasvirlab, so'nggi paytlarda yovuz bosqinchilar bostirib kirayotganini alam va g'azab bilan yozadi.

Shoir o'lkaning bunday ahvolga tushib qolishiga kimlar sababchi, degan savolga ham shunga xos ramziy yo'sindagi javob beradi. Ularni sho'r suvlaridan kelib chiqqan maymun, tulki va shayton, "aldovchi mal'um" hamda uning quyruq'ini tutganlar deb javob beradi. Agar ushbu tasvirlardagi "aldovchi", "tulki va shayton", "quyruq'ini tutganlar" kabi obrazlar mohiyatiga e'tibor qaratsak, fojiasining asl sababkorlari bo'lganlarning o'ziga xos portreti yaratilganiga amin bo'lamiz. Shoirning "Behbudiyning sag'anasin izladim", "O'gut" kabi she'rlarida ham ushbu fosh qiluvchi konsepsiya yetakchilik qilishini ko'rishimiz mumkin.

XX asr realistik hamda asosida fojiaiylik va ramziylikni mujassamlashtirgan, milliy ozodlik motivlari bilan sug'orilgan she'riyatni vujudga keltiruvchi shoirlardan biri aynan Abdurauf Fitratdir.



Uning zamondoshi Cho'lpon esa bu she'riyatni badiiy yuksakliklarga ko'tardi hamda go'zallik timsoliga aylantirib, yangi tipdagi XX asr she'riyatining tamal toshini qo'ydi. Cho'lponning ijodiy kamoloti uning she'riyati bilan belgilanadi. Cho'lpon shoir sifatida "Buloqlar", "Uyg'onish", "Tong sirlari", "Soz" kabi to'plamlari bilan namoyon bo'ladi. Cho'lpon she'riyati realistik she'riyatdir. U she'rlarida mumtoz an'analarni davom ettirgan holda, ham poetik jihatdan, ham vazn xususiyatlariga ko'ra yangi tipdagi she'riyatni yaratadi.

Cho'lpon she'riyatida davr va shaxs fojiasini uyg'un tarzda aks etadi. Shu jihatdan shoirning "Buzilgan o'lkaga", "Amalning o'limi", "Ko'ngil", "Kishan", "Tun", "Xayol", "Tabiatga", "O'zbeгим" kabi qo'rg'ov she'rlari xarakterlidir. Cho'lpon she'riyatining mavzulari xilma-xil. Unda sevgi-muhabbat mavzusi kam bo'lsa-da, uchraydi. Bundan tashqari, tabiat, shaxs erki mavzulari yetakchilik qiladi. Cho'lpon she'rlarining mavzusi rang-barang, ammo ularning barchasi uchun muhtarak bo'lgan jihat millat taqdiri, vatan ozodligi

masaladir. Shoirning ko'ngil rishtalari bilan bog'langan, sevgi-muhabbat motivi ifodalangan she'rlarida ham shaxs erki masalasi yetakchi o'rin egallaydi. Shu jihatdan shoirning 1920-yilda yozilgan "Qalandar ishq" g'azali xarakterlidir. Bu g'azalda shoir ilohiy muhabbatni kuylaydi. She'ring lirik qahramoni Oshiqdir. She'rida uning ma'shuqa hajrida chekkan iztiroblari asosiy ruhiy talqin sifatida namoyon bo'ladi. She'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku, Asrlik tosh yanglig' bu xatarli yo'lda qotdim-ku. Karashma dengizni ko'rdim, na nozlik to'ldini bordir, Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ko'rinib turibdiki, Cho'lponning lirik qahramoni oshiq sifatida ham murosasizlik, bedorlik yo'lini tanlagan. Oshiq ma'shuqaning hajrida ishq yo'lida katta safarga chiqqan. Biroq bu safar yo'li shunchalar muhtasham va kengki, oshiq yo'lini yo'qotib, asrlar qa'riga otigan tosh yanglig' qotganini bilmay qoladi. She'rida ushbu holat butun murakkabligi va ziddiyatli jihatlari bilan badiiy mukammal tarzda ifodasini topa olgan. Oshiq ishq yo'lida turfa manzaralarga duch keladi. Uning gulzorida bulbul yanglig' nola qilib, bag'ri qon bo'ladi:

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni, Yana kulbanga qayg'ular, alamlar birla qaytdim-ku. Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar, Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Ushbu satrlarda shoir oshiqning ishq yo'lida qalandarlikni bo'yniga olib dunyoni kezishi, biroq maqsadga erisha olmay, muhabbat osmonida go'zal cho'lpon bo'lib porlab turgan bo'lsa-da, quyosh (yor) nuriga toqat qilolmay, yerga botganini o'ziga xos poetik tarzda ifodalaydi. Bu she'ring talqini, oshiq ruhiy kechinmalari turlicha sharhlanishi mumkin, albatta. Sho'r davrida, ayniqsa, 20-30-yillarda "quyosh nuri" deganda "oktabr inqilobi" nazarda tutilib, shoirga turli siyosiy ayblar ham qo'yilgan edi. Bugungi kunda ham bu she'rga turlicha munosabatda bo'linmoqda. Nazarimizda she'rdagi ishq, oshqlik talqinida ham zohiriy, ham botiniy ma'no bor. Zohiriy ma'noda shoir insoniy sevgini ulug'laydi. Sevgining hijron bilan to'liq tuyg'u ekani, oshqlik holatida qalb hijron azobiga mahkumligi badiiy mukammal poetik obraz va timsollar vositasida mubolag'ador tarzda aks etmoqda.

She'rida ushbu zohiriy ma'nodan tashqari botiniy mazmun ham bo'lib, unda ilohiy sevgi tarannum etiladi. Oshiq-ma'shuqlik holati insonning aql bilan baholash mumkin bo'lmagan sarmavj kechinmalari sifatida tasvirlangan. She'rida mumtoz she'riyatdagi kabi Alloh jamoliga musharraf bo'lish jarayoni shunchalar buyukki, u yo'lga kirgan odam boshqa tomonlarga burila olmaydi. Ishaq yo'lidagi safar jarayonida uni poklovchi, tolovchi turfa manzaralar, sinovlar borki, oshiq bu yo'llarning barchasini sabr-qanoat bilan bosib o'tishi kerak. Oshiq muhabbat yo'lida, ma'shuqa hajrida go'zal cho'lpon yulduzidek porlab turadi. Qachonki vaslga, ya'ni Quyosh — Alloh jamoliga muayassar bo'lganda esa barcha oshiqlar kabi Uning nuriga dosh bera olmay "yerga botadi".

"Yerga botmoq" ISHQ jamoliga musharraf bo'lmoqdir. Shoirning "Go'zal" she'rida xuddi shu tarzda zohiriy va botiniy mazmuni ko'rishimiz mumkin. Ushbu she'rida ham lirik qahramon — oshiq ruhiyatini oshchida asosiy poetik obraz sevgi va ishq yo'lidir. Bu she'rida oshiq ma'shuqasini daraklab safarga otlanadi. Bu safar ishq yo'lidagi "bedorlik" safaridir. Bedorlik safari kechki paytdan tonggacha, ya'ni quyosh chiqquncha davom etadi.


Shubhasiz, Cho'lpon she'rlarining yetakchi mavzularidan birini, cho'lponshunoslar haqqi ravishda ta'kidlaganidek, erk, ozodlik, mustamlaka zulmiga qarshi kurash motivlari tashkil etadi. Shu bois, uning she'rlarida davr va shaxs fojiasini yetakchi mavqeda. Cho'lponning lirik qahramoni fojiaiy shaxs. Uning ruhiy kechinmalarini kuzatar ekanmiz, nihoyatda ziddiyatli, murosasiz, kurashchan, isyonkor, ba'zan esa umidsizlik girdobiga g'araq bo'lgan o'z, turli vasvasali tuyg'ularga berilgan holatlarda namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shu tariqa ko'z o'ngimizda fojiaiy xarakter qirralari gavdalanadi. Shoirning vatanparvarlik motivlari ifodalangan she'rlarida davr fojiasini ham realistik talqiniga ega.

Shu jihatdan shoirning "Buzilgan o'lkaga" she'ri nihoyatda xarakterli. She'rida davrga xos real voqealik



tasviri ustuvor. Shoir vatan timsoliga murojaat qilar ekan, uning o'timshdagi ulug'vorligidan, buyukligidan so'zlaydi. Vatanning o'ziga xos ulug'vor poetik suratini chizadi, o'timsh manzarasini yaratadi. She'rida shunday buyuk davlat nega xarob ahvolga tushib qoldi, degan savol pafos darajasiga ko'tarilib, shoir dardiga aylanadi.

Shoirda lirik qahramonning vujud-vujudidan erk va ozodlikka intilish ufuq turadi. Unda bosqinchilarga nisbatan nafrat, qahr-g'azab nihoyatda kuchli. She'r poetik jihatdan mukammal darajada yaratilgan. Unda vatan lirik qahramon ruhiyatini ochuvchi asosiy poetik obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ko'plab badiiy usullardan mahorat bilan foydalanadi. Shunga ko'ra, she'rdagi tasviriy shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin. Shoir she'ring birinchi qismida bir vaqtlar ulug'vor, buyuk bo'lgan zo'r o'lka nega bunday xarob ahvolga tushib qoldi, degan haqli savol berib, ikkinchi qism sifatida tushing asosiy sababchisi "hech haqqi yo'q o'ja"lar ekanini poetik tarzda ifodalaydi.



Umuman, Cho'lpon she'rlaridagi asosiy motiv erk, ozodlik, mustamlaka zulmiga qarshi kurashdir. Lirik qahramon ruhiyatini oshchida ko'plab poetik obrazlar va timsollarga murojaat qiladi. Ko'ngil, kishan, tun, yulduz, oy, quyosh, turli faslar — bahor, yoz, kuz, qish, yomg'ir, bulut, qor, tong, kunduz, tun, xayol va boshqa ko'plab narsa-hodisalar obrazlar sifatida xarakter ochuvchi vositaga aylangan. Bulardan tashqari, Sharq, G'arb tushunchalari ham poetik obraz sifatida keladi. Ular ko'proq ramziy obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Sharq ezilgan mazlum xalq, G'arb esa yovuz bosqinchi kuch timsolida keladi. Shoirning "Amalning o'limi" she'ri ham ozodlik motivini bilan sug'orilgan bo'lib, "Buzilgan o'lka" she'ring mantiqiy davomidir.

Shoirning "Ko'ngil", "Kishan", "Bas endi", "Qo'zg'alist" kabi she'rlarida kurashchanlik, isyonkorlik motivlari yetakchilik qiladi. "Ko'ngil" she'rida ko'ngil poetik obraz orqali lirik qahramon erkni bo'g'uvchi har qanday kishanlarga qarshi shafqatsiz kurashish ishq bilan yonadi. Lirik qahramon ko'ngilga murojaat qilar ekan, uning kishanlar bilan do'stlashishidan dili ozorlanadi. Ko'ngil obrazining mukammal suratini chizadi, uning har qanday kishanlarni kiymasligini, haqoratlariga bo'yin egmasligini, hur tug'ilgan ekan, abdulabad hur bo'lib qolishini orzu qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid she'riyati adabiyotimizni ikki jihati bilan yangi adabiyot darajasiga olib chiqdi. Birinchisi, bu she'riyat o'zbek adabiyotini an'anaviy she'riyat motivlaridan farq qiluvchi chinakam vatanparvarlik va millatparvarlik g'oyalari-la sug'orilgan istiqloq konsepsiyasi bilan boyitadi. Ikkinchisi, she'riyatni poetik obraz va ramzlar bilan to'yinagan yangi ifoda usuli — realistik she'riyat darajasiga olib chiqdi.